



OLIV TA'LIM MUASSASASI XORIJIY TA'LIM YO'NALISHI TALABALARINING O'Z-O'ZINI BOSHQARISH VA HISSIY BARQARORLIGINI SHAKLLANTIRISHDA O'QITUVCHINING ROLI

Muallif: Shabonova Shaxnoza Baxridinovna¹

Affiliyatsiya: Buxoro davlat pedagogika instituti, 2- bosqich tayanch doktoranti¹

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15193454>

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola oliy ta'lim muassasasi talabalarining o'z-o'zini boshqarish va hissiy barqarorligini s hakllantirishda o'qituvchining roli haqida bo'lib, talabalarning o'zligini rivojlantirish, stress va emotsional muammolarni boshqarish qobiliyatlarini shakllantirishda o'qituvchilarning ta'sirini tahlil qiladi. Maqola, o'qituvchilarning pedagogik usullari va hissiy intellektni rivojlantirishga qaratilgan faoliyatlarini o'z ichiga olgan holda, talabalar o'rtasida ijobiy hissiy muhit yaratishda o'qituvchining roli alohida ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: Yevropa ta'limi, ta'lim texnologiyalari, raqamli ta'lim, innovatsion texnologiyalar, interaktiv ta'lim, masofaviy ta'lim, virtual haqiqat (VR)

KIRISH

O'z-o'zini boshqarish va hissiy barqarorlik oliy ta'lim muassasasi talabalar uchun juda muhim ko'nikmalar hisoblanadi. Ushbu qobiliyatlar nafaqat akademik muvaffaqiyatga erishishda, balki kelajakdagi professional va shaxsiy hayotda ham talabalar uchun zarurdir. Shuningdek, talabalarda hissiy barqarorlikni shakllantirish o'qituvchining asosiy vazifalaridan biri bo'lib, bu jarayonda pedagogik yondoshuv va muhitni yaratishda o'qituvchilarning roli juda katta ahamiyatga ega. Ushbu maqolada o'qituvchining roli, uning talabalarning hissiy holatiga ta'siri va bu jarayonni boshqarish usullari batafsil ko'rib chiqiladi. Kasbiy rivojlanish, o'z-o'zini rivojlantirish, o'z-o'zini takomillashtirish va o'z-o'zini o'qitishga ko'maklashuvchi o'z-o'zini tashkil etish fazilati kelajakdagi kasb egalari va mutaxassislarning eng ko'p talab qilinadigan fazilatlaridan biriga aylanadi. Kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish sharoitida talaba shaxsini har tomonlama rivojlantirish ta'lim faoliyatida o'zini o'zi tashkil etish ko'nikmalarisiz paydo bo'lishi mumkin emas. Pedagogikaga "O'z-o'zini boshqarish" tushunchasi o'zaro bog'liq bo'lgan falsafa, tabiatshunoslik, sinergetika va psixologiya kabi fanlardan kirib kelgan. Falsafa va tabiatshunoslik fanlari nuqtai nazaridan, o'z-o'zini tashkil etish moddalarning sifat jihatidan yangi xususiyatlarining paydo bo'lishining eng muhim omili bo'lib, muvozanatsiz rivojlanayotgan tizimlarda tartibni oshirish yoki ichki sabablar ta'sirida tizimlardan tashqaridagi muhit bilan o'zaro ta'sirlashganda ochiq muvozanatsiz rivojlanayotgan tizimlarda tartib darajasining paydo bo'lishi va chuqurlashishi jarayonidir. Sinergetika nuqtai nazaridan, o'z-o'zini tashkil qilish - murakkab, muvozanatdan uzoqda kritik nuqtalarda (bifurkatsiya nuqtalarida) chiziqli bo'lmagan.

3

tizimlarda fazo-vaqt tuzilmalarini makroskopik tartiblash jarayoni sifatida tushuniladi. Ushbu nuqtalarda tizimning xatti-harakati beqaror bo'lib, hatto kichik ta'sirlar (fluktuasiyalar) ta'siri ostida o'z holatini keskin o'zgartiradi va muvozanat o'rnatilgunga qadar keyingi rivojlanishning ko'plab yo'llarini bosib o'tadi. Vaziyatning keskin o'zgarishi va muvozanatga o'tishdan oldin bunday tartibsizlik, muvozanatning yo'qligi (tartibsizlik) dinamik (yoki deterministik) deb ataladi. U o'ta murakkab tartib uchun kuchli potentsialga va juda ko'p tartiblashgan tuzilmalar xilma-xilligida o'zini namoyon qilish qobiliyatiga ega bo'ladi. "Sinergetikaning asosiy g'oyasi - bu o'z-o'zini tashkil qilish jarayoni natijasida tartibsizlik va xaosdan o'z-o'zini tashkil etish jarayoni natijasida tartibni paydo bo'lish imkoniyatining asosiy g'oyasidir", deb ta'kidlagan S.P.Kapitsa o'z asarlarida.

Psixologiyada o'z-o'zini boshqarish deganda, ong, intellektual mexanizmlar tomonidan amalga oshiriladigan va iroda tomonidan boshqariladigan barcha mavjud, orttirilgan va orttirilayotgan shaxsiy fazilatlarni birlashtirish qobiliyati tushuniladi. Psixologiya fani nuqtai nazaridan, kuchli iroda fazilatiga ega bo'lmagan shaxs o'z faoliyatini o'zi tashkil etishga qodir bo'lmaydi. O'z-o'zini tashkil qilish qobiliyati xulq-atvor motivlarida namoyon bo'ladi va tartibli faoliyatda amalga oshiriladi. O'z-o'zini boshqarish iroda bilan boshqariladi va motivatsiyalangan, tartibli faoliyat orqali amalga oshiriladi. O'z-o'zini tashkil etish individuallikni, ma'lum bir psixik tizimni yaratib, shaxsiy etuklik ko'rsatkichi sifatida ko'riladi va shaxs o'ziga xos fazilatlari, ruhiyati, motivlari, maqsadlari va dunyoqarashlari orqali alohida sub'ekt sifatida o'zini anglaydi. O'z-o'zini tashkil qilish turli darajalarda namoyon bo'ladi, lekin u infantil shaxslarga xos emasdir - individual rivojlanish jarayonida ular o'z-o'zini tartibga solish mexanizmlarini to'laqonli qo'rish uchun etarli shart-sharoitlarga ega bo'lishmaydi. Ularning o'zini o'zi boshqarishi maqsadlilik, tushunishlilik va nazoratlilikga ega bo'lmaydi. O'z-o'zini tashkil etishning yuqori darajadagi birinchi belgisi bo'lib faol o'zini-o'zi yaratish, shaxsiy rivojlanish hisoblanadi. Pedagogikada "O'z-o'zini boshqarish" tushunchasining mohiyatini aniqlashning umumiy qabul qilingan bir nechta yondashuvlari mavjud: 1. Shaxsiy yondashuv o'z-o'zini tashkil qilishni shaxsga xos xususiyatlar sifatida ko'rib chiqadi. 2. Faoliyatli yondashuv talabalarning o'quv jarayonidagi o'zini o'zi tashkil etishini ma'lum bosqichlardan iborat jarayon sifatida ko'rib chiqadi. Faoliyatli yondashuv o'z-o'zini tashkil etishning tuzilishini, uning komponentlarini mavjud aloqalarini, shuningdek ularning faoliyatni mustaqil tashkil etish samaradorligiga ta'sirining ahamiyatini o'rganadi. 3. Shaxsiy-faoliyatli yondashuv o'z-o'zini tashkil etishni jarayon komponentlari va shaxsning shaxsiy xususiyatlarining integratsiyasi deb hisoblaydi. 4. Texnik yondashuv umumiy ta'limga texnologik yondashuvning paydo bo'lishi bilan shakllandi. U ko'pincha shaxsiy, faoliyatli va shaxsiy-faoliyatli yondashuvlar doirasida amalga oshiriladi. Texnologik yondashuv kontseptsiyada talabaning o'z faoliyatini tashkil etish samaradorligini oshirishga qaratilgan (aqliy mehnatni ilmiy tashkil etish, o'z-o'zini boshqarish, vaqtni boshqarish ga doir usullar va uslublar o'rganiladi va ishlab chiqiladi. O'quv faoliyatida talabalarning o'zini o'zi tashkil etish masalalari bo'yicha tadqiqot olib borgan mualliflar o'z-o'zini tashkil etish tushunchasini turlicha tavsifladilar: - bu o'quv jarayonida kasbiy rivojlanish maqsadlari va qadriyatlaridan kelib chiqqan va yo'naltirilgan, talabalarning o'quv ishlarini tartibli, ongli ravishda tashkil etish jarayonidir.

Bu ta'rifda o'z-o'zini tashkil etishning aksiologik komponenti mavjudligi

kuzatiladi; - o'z-o'zini tahlil qilish, o'z – o'zini nazorat qilish, o'zini o'zini tartibga solish, oldindan ko'ra bilish, maqsadga yo'naltirilganlik, o'z-o'zini tanqid qilish va o'z-o'zini intizomlashtirish qobiliyatini rivojlantiradigan ongning shaxsiy tuzilmalari majmuasidir. Bu o'qishda, ishda va shaxsiy hayotda o'z vaqtini optimal taqsimlash, ya'ni o'z imkoniyatlaridan maksimal darajada foydalanish, o'z hayotini ongli ravishda boshqarish (o'z taqdirini o'zi belgilash) va tashqi sharoitlarni engib o'tish uchun kundalik amaliyotda tasdiqlangan ish usullarini izchil va maqsadli qo'llashdir .

O'z-o'zini tashkil etish xususiyatlariga asoslanib, "o'zini o'zi boshqarish " atamasi motiv va iroda orqali boshqariladigan maqsad sari harakatlanish jarayoni sifatida belgilanishi mumkin. U mavjud va orttirilgan xususiyat va malakalarning birligi va integratsiyasi orqali amalga oshiriladi. O'z-o'zini tashkil etish, har qanday jarayon kabi, o'z tuzilmasiga ega. O'z-o'zini tashkil etishning har bir tarkibiy qismi o'zining funktsional yukiga ega va o'quv jarayonida talabalarning o'zini o'zi tashkil etish jarayonining har bir bosqichida belgilanadigan roli nuqtai nazaridan ko'rib chiqiladi. Masalan, Kozlovskaya T.N. o'z-o'zini tashkil etish tuzilmasini talabalarning o'quv faoliyatidagi funktsiyalariga qarab belgilab bergan : - maqsadni belgilash – shaxsiy maqsadlarni tahlil qilish va shakllantirish; - rejalashtirish – o'z faoliyatining rejalari va muqobil variantlarni ishlab chiqish; - qaror qabul qilish - kelgusi masalalar bo'yicha qarorlar qabul qilish; - tashkil etish - kun tartibini tuzish va shaxsiy mehnat jarayonini tashkil qilish; - amalga oshirish – belgilangan vazifalarni amalga oshirish; - nazorat - o'z-o'zini nazorat qilish va natijalarni nazorat qilish (zarurat bo'lganda maqsadlarga tuzatishlar kiritish); - axborot – axborot izlash va almashish; - kommunikasiya – kommunikasiya aloqalarini amalga oshirish. Gromtseva A.K.ning tuzilmasi tashkiliy ko'nikmalar bilan ifodalanadi: maqsadni belgilash, uni amalga oshirish yo'llarini belgilash, kelajakdagi faoliyatni rejalashtirish, faoliyat natijalarini kuzatish, keyingi faoliyat uchun vektorni tanlash, vaqtni iqtisod qilish va undan unumli foydalanish . Kirsanov A.A. tuzilmaga, yuqoridagi Gromtseva A.K. komponentlariga, ish vaqtini tashkil etish komponentini kiritdi . Paxmutova M.A. ning fikriga ko'ra o'quv faoliyatda talabalarning o'zini o'zi tashkil qilishning eng muhim tarkibiy qismlari bu harakatlar, ya'ni qo'yidagi komponentlardir : - maqsadni belgilash; - ish sharoitlarini tahlil qilish; - operatsiyalarni rejalashtirish; - rejani amalga oshirish; - irodali harakatlar; - natijalarni nazorat qilish; - xatolarni tuzatish. Mualliflarning tadqiqotlarida o'z-o'zini tashkil etish faoliyat orqali ifodalangan va A.A. Kirsanov ishlaridan kelib chiqib, u vaqt bilan bog'liq. Biroq, o'z-o'zini tashkil etishni ko'rib chiqishning bunday yondashuvi shaxsiy jihatlarni hisobga olmaydi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Adabiyotlar tahlili orqali, o'qituvchining hissiy barqarorlikni shakllantirishdagi o'rni, turli psixologik va pedagogik yondoshuvlar yordamida talabalarda o'z-o'zini boshqarish qobiliyatlarini rivojlantirish mumkinligi ta'kidlanadi. Asosiy metodologiya sifatida sifatli tadqiqotlar, intervyular va anketalar yordamida oliy ta'lim muassasasi talabalari orasida o'qituvchining ta'siri o'rganiladi. Shuningdek, stressni boshqarish va hissiy barqarorlikni rivojlantirishga qaratilgan psixologik texnikalar va pedagogik yondoshuvlar tahlil qilinadi.

Oliy ta'lim muassasasi talabalarining o'z-o'zini boshqarish va hissiy barqarorligini shakllantirishda o'qituvchining roli mavzusida adabiyotlar tahlili va metodologiya quyidagi jihatlarni o'z ichiga oladi:

1. O'z-o'zini boshqarish nazariyasi:

O'z-o'zini boshqarish (self-management) nazariyasi, masalan, Bandura (1977) tomonidan taqdim etilgan o'z-o'zini samarali boshqarish konsepsiyasi, talabalar o'z maqsadlariga erishish uchun qanday qilib o'z hissiyotlarini va xatti-harakatlarini nazorat qilishlari mumkinligini tushuntiradi.

Deci va Ryan (1985) tomonidan ishlab chiqilgan o'z-o'zini motivatsiya nazariyasi, talabalarni ichki motivatsiya va tashqi motivatsiya orqali qanday rag'batlantirish mumkinligini ko'rsatadi.

2. Hissiy intellekt:

Goleman (1995) tomonidan taqdim etilgan hissiy intellekt konsepsiyasi, talabalar o'z hissiyotlarini anglash va boshqarish, shuningdek, boshqalar bilan muloqot qilish qobiliyatlarini rivojlantirishda o'qituvchining roli haqida muhim ma'lumotlar beradi.

Hissiy intellektni rivojlantirishda o'qituvchilarning yondashuvi va metodologiyalari haqida ko'plab tadqiqotlar mavjud (masalan, Mayer va Salovey, 1997).

3. Psixologik xavfsizlik:

Edmondson (1999) psixologik xavfsizlik tushunchasini kiritgan bo'lib, bu muhitda talabalar xatolardan o'rganishlari va fikrlarini erkin ifoda etishlari mumkin. O'qituvchilar psixologik xavfsizlikni ta'minlash orqali talabalarining o'z-o'zini boshqarish qobiliyatlarini oshirishda muhim rol o'ynaydi.

4. O'qituvchilarning ta'siri:

O'qituvchilarning pedagogik uslublari va ularning talabalarga bo'lgan munosabati, masalan, Shulman (1986) tomonidan kiritilgan pedagogik bilim konsepsiyasi orqali tahlil qilinishi mumkin. O'qituvchilar talabalarining hissiy va intellektual rivojlanishida qanday rol o'ynashlarini tushunishda yordam beradi.

METODOLOGIYA

1. Tadqiqot usullari:

Sotsiologik so'rovlar: Talabalar orasida so'rovnomalar o'tkazish orqali o'qituvchilarning roli va ularning hissiy barqarorlikka ta'siri haqida ma'lumot to'plash.

Intervyu: Talabalar va o'qituvchilar bilan intervyu o'tkazish orqali ularning tajribalari va fikrlarini o'rganish.

Kuzatuv: Dars jarayonini kuzatib borish orqali o'qituvchilarning uslublari va talabalar bilan muloqotini tahlil qilish.

2. Ma'lumotlarni tahlil qilish:

Sifatli tahlil: Intervyu va kuzatuv natijalarini sifatli tahlil qilish orqali o'qituvchining roli va ta'sirini aniqlash.

Kvantitativ tahlil: So'rovnoma natijalarini statistik tahlil qilish orqali talabalar o'z-o'zini boshqarish va hissiy barqarorlik darajasini o'lchash.

3. Amaliy tadqiqotlar:

O'qituvchilar uchun seminarlar yoki treninglar tashkil etish, bu jarayonda talabalarining hissiy barqarorligini oshirishga qaratilgan amaliyotlarni sinab ko'rish.

4. Tajribaviy tadqiqotlar:

O'qituvchilarning turli pedagogik uslublarini sinab ko'rish va ularning talabalarga ta'sirini baholash.

Rus olimlarining tadqiqotlarida talabalarining o'quv faoliyatidagi o'zini o'zi tashkil etishini o'rganish masalalariga qiziqish 20-asrning o'rtalarida paydo bo'lgan, shuning uchun talabalarining mustaqil ishlarini tashkil etish muammosi Gortsevskiy A.A., Zaichenko P.A., Kovalevskiy G., Titova G.Yu., Skripkin V.S. Kutepova L.I. va boshqalarlarning asarlarida ko'rib chiqilgan. 1972 yildan boshlab o'z-o'zini tashkil etish kontseptsiyasining ta'rifi oliy ta'lim pedagogikasi darsliklariga kiritilgdi va bunda o'z-o'zini tashkil etish "talaba ishini optimallashtirish uchun mo'ljallangan muayyan ko'nikma va ko'nikmalar tizimi" sifatida ko'rib chiqildi. Adabiyotda taqdim etilgan o'z-o'zini tashkil etish tushunchalarining aksariyati ma'lum bir g'oyaga asoslanganki, uning atrofida ushbu g'oyalarni amalga oshirish uchun o'z ustida ishlash usullari va uslublari tizimi shakllanadi. L. Seiwert kontseptsiyasida bu o'z vaqtinini tejash; M. Vudkok va D. Frensis kontseptsiyasida - o'z cheklovlarini engib o'tish; V. Andreev kontseptsiyasida - ijodiy shaxsning o'zini o'zi rivojlantirish; A. Xrolenko kontseptsiyasida - ishbilarmonlik hayotining shaxsiy madaniyatini oshirish; B. va X. Shvalbe kontseptsiyasida - shaxsiy biznes muvaffaqiyatiga erishishdir.

Ushbu adabiyotlar tahlili va metodologiya, o'qituvchining talabalarining o'z-o'zini boshqarish va hissiy barqarorligini shakllantirishdagi rolini chuqurroq tushunishga yordam beradi. Bu jarayonni yanada samarali qilish uchun o'qituvchilarni tayyorlash va rivojlantirishga qaratilgan tadqiqotlar o'tkazish muhimdir.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

O'qituvchining talabalarga ta'siri ularning o'z-o'zini boshqarish qobiliyatlariga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. O'qituvchining ijobiy, qo'llab-quvvatlovchi yondoshuvi talabalarda o'z-o'zini anglash va hissiy barqarorlikni rivojlantiradi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, talabalarda hissiy intellektni rivojlantirishda o'qituvchining o'zini anglashga yo'naltirgan pedagogik faoliyatlari muhim rol o'ynaydi. Bundan tashqari, stressni boshqarish va emotsional holatni nazorat qilishda o'qituvchining o'zaro aloqalari va maslahatlari talabalarining ruhiy holatiga sezilarli ta'sir qiladi. Oliy ta'lim muassasasi talabalarining o'z-o'zini boshqarish va hissiy barqarorligini shakllantirishda o'qituvchining roli juda muhimdir. O'qituvchilar talabalar uchun nafaqat bilim beruvchi, balki ularga psixologik va emotsional jihatdan ham yordam beruvchi shaxslar sifatida faoliyat yuritadilar. Quyida o'qituvchining bu jarayondagi asosiy rollari keltirilgan:

1. Mentorlik va yo'l-yo'riq berish: O'qituvchilar talabalar uchun mentor bo'lib, ularning rivojlanishida yo'l-yo'riq ko'rsatishi mumkin. Bu, o'z navbatida, talabalarni o'z maqsadlarini aniqlashga va ularni amalga oshirishga undaydi.

2. Hissiy intellektni rivojlantirish: O'qituvchilar talabalarni o'z hissiyotlarini anglash va boshqarish, shuningdek, boshqalar bilan samarali muloqot qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam berishi kerak. Hissiy intellekt talabalarining stressni boshqarishiga va ijtimoiy munosabatlarni yaxshilashiga yordam beradi.

3. O'z-o'zini boshqarish ko'nikmalarini shakllantirish: O'qituvchilar talabalarni vaqtni boshqarish, maqsad qo'yish va o'z-o'zini motivatsiya qilish kabi ko'nikmalarni rivojlantirishga rag'batlantirishi lozim. Bu ko'nikmalar talabalar uchun muhim

ahamiyatga ega, chunki ular akademik muvaffaqiyat va shaxsiy rivojlanishda katta rol o'ynaydi.

4. Psixologik xavfsizlikni ta'minlash: O'qituvchilar dars muhitini qulay va xavfsiz qilish orqali talabalar o'z fikrlarini erkin ifoda etishlariga yordam berishi kerak. Bu, o'z navbatida, talabalar orasida ishonch va hamkorlikni kuchaytiradi.

5. Ijobiy motivatsiya yaratish: O'qituvchilar talabalarni rag'batlantirish orqali ularning o'z-o'zini boshqarish qobiliyatlarini oshirishi mumkin. Ijobiy motivatsiya talabalarni yanada faol va izchil bo'lishga undaydi.

6. Tahlil va fikr bildirish: O'qituvchilar talabalar ishlarini tahlil qilish va ularga konstruktiv fikrlar berish orqali ularning o'z-o'zini baholash qobiliyatlarini rivojlantirishda yordam berishi mumkin.

Umuman olganda, o'qituvchi talabalar uchun nafaqat bilim beruvchi, balki ularning hissiy va psixologik rivojlanishida muhim rol o'ynaydigan shaxsdir. Talabalarning o'z-o'zini boshqarish va hissiy barqarorligini shakllantirishda o'qituvchining yondashuvi, uslubi va qo'llab-quvvatlashi katta ahamiyatga ega.

XULOSA

O'qituvchining oliy ta'lim muassasasi talabalariga hissiy barqarorlikni shakllantirish va o'z-o'zini boshqarish qobiliyatlarini rivojlantirishdagi roli beqiyosdir. Talabalarning hissiy intellekti va o'zini anglashga bo'lgan ehtiyoji zamon talablariga mos ravishda kuchayib boradi. O'qituvchining pedagogik va psixologik yondoshuvlari talabalarning muvaffaqiyatli ijtimoiy va shaxsiy hayotga tayyorlanishida hal qiluvchi omil bo'lib qoladi. Ushbu maqola oliy ta'limda hissiy barqarorlikni rivojlantirishda o'qituvchining ta'sirini kengaytirish zaruratini ko'rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Goleman, D. (1995). Emotional Intelligence: Why It Can Matter More Than IQ. Bantam Books.
2. Salovey, P., & Mayer, J. D. (1990). "Emotional Intelligence". Imagination, Cognition, and Personality.
3. Kolb, D. A. (1984). Experiential Learning: Experience as the Source of Learning and Development. Prentice-Hall.
4. O'Connor, P. (2011). The Role of the Teacher in the Emotional Development of Students in Higher Education. Educational Psychology.
5. Johnstone, R., & Nutter, D. (2002). Self-Regulation and Emotional Stability in College Students. Journal of Higher Education.
6. Shaxnoza, S. . (2023). The Concept of "Dream" in the English and Uzbek Worldwide. Miasto Przyszłości, 33, 190–192. Retrieved from <https://miastoprzyszlosci.com.pl/index.php/mp/article/view/121>
7. Shakhnoza S. THE ROLE OF GAMIFICATION IN TEACHING ENGLISH //PROSPECTS OF DEVELOPMENT OF SCIENCE AND EDUCATION. – 2023. – T. 1. – №. 14. – C. 72-77.
8. Shakhnoza S. THE USE OF MOVIES IN LANGUAGE TEACHING //PROSPECTS OF DEVELOPMENT OF SCIENCE AND EDUCATION. – 2023. – T. 1. – №. 14. – C. 78-83.

9. Shakhnoza S. TO OVERCOME LANGUAGE DIFFICULTIES FOR THE PRIMARY SCHOOLS //Лучшие интеллектуальные исследования. – 2023. – Т. 9. – №. 3. – С. 45-53
10. Avezmurodovich K. R., Bakhriddinova S. S. The Role of Mother Tongue in English Language Teaching //Excellencia: International Multi-disciplinary Journal of Education (2994-9521). – 2024. – Т. 2. – №. 4. – С. 309-11. Bakhriddinova S. S. et al. RELATIONSHIP BETWEEN INTENSIVE READING AND FLUENCY //Uzbek Scholar Journal. – 2024. – Т. 26. – С. 27-30.
11. Шабонова Ш. Boshlang 'ich sinflarda ingliz tilini ona tili bilan integratsiyalab o'rgatishda ekologik madaniyat tushunchasining o 'rni //Зарубежная лингвистика и лингводидактика. – 2024. – Т. 2. – №. 3/5. – С. 316-320.

